QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI STATISTIKA
BOSHQARMASI





# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-DEKABR***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



**Sanoat statistikasi bo’limi**
**Tel.: 61-222-75-87**

# Qoraqalpog‘iston  Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 16621,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,5 % ni tashkil etdi.

| 0,7 % | 85,5 % | 13,2 % | 0,6 % |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|
| B | 17,0 % | 47,7 % |
| C | 107,4 % | 104,2 % |
| D | 122,9 % | 139,7 % |
| E | 68,4 % | 77,3 % |

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da**

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,2 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 39,7 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**2021- yil**
**124,9 mlrd. so’m**

**2020- yil**
**154,0 mlrd. so’m**

**2019- yil**
**503,6 mlrd. so’m**

**B**

**2021- yil**
**47,7 %**

**2020- yil**
**17,0 %**

**2019- yil**
**100,3 %**

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 124,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

**2020- yil**
**B**
**1,1 %**

**2021- yil**
**B**
**0,7 %**

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 237,1 | 171,1 | -66,0 |







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 2641,5 | 1947,8 | -693,7 |
| Gaz kondensati, ming t. | 110,3 | 89,3 | -21,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







*2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14206,9 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,5 % ini tashkil etdi.*




*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2020- yilda 1,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 62,2 % (60,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,3 % (4,6 %) va quyi texnologiyalisi – 32,5 % (33,1 %) ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 62,2 % (2020- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 16,2 % (2020- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,6 % (2020- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % (2020- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,9 %) tashkil etdi.*

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*


















2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 3994,5 ming litr aroq (2020- yilning mos davriga nisbatan 8,3 % ga) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi. Shuningdek, 88,5 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (4,3 % ), 13,2 ming tonna kalava ip (0,2 % ) 271,7 ming tonna portlandsement (2,6 %), 56,1 ming tonna paxta chigiti (23,0 %), 6,6 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (42,5 %) va 3,4 ming tonna tozalangan guruch (60,2 %) ishlab chiqarilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Aroq, *ming litr 100 % li spirt*** | 3686,9 | 3994,5 | 307,6 |
| **Polietilen, *ming t.*** | 354,5 | 304,9 | -49,6 |
| **Polipropilen, *ming t.*** | 97,6 | 87,1 | -10,5 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 92,5 | 88,5 | -4,0 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 45,8 | 35,3 | -10,5 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 11,4 | 6,6 | --4,8 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 59,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa103,2 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,6 % ni, fizik hajm indeksi 105,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8756,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yili boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 433,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yili oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 2119,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yili ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 175,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yili yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 148,6 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 7,0 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1936,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2020- yili yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %, fizik hajm indeksi 84,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 131,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2194,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,2 % ini) tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 39,7 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 4387,0 | 5213,2 | 826,2 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 46,0 | 62,6 | 16,6 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m*** | 96213,1 | 113981,0 | 17767,9 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 95,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.




## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 6029,1 | 7731,6 | 1702,5 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 17129,2 | 16419,6 | -15487,6 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 41656,1 | 61018,9 | 19362,8 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 46,5 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 28,2 % ga oshganligi kuzatildi.

# Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3000,6 mlrdso'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 18,1 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2020-yil yanvar-dekabr | 2021-yil yanvar-dekabr |
|---|---|
| 57,2 % | 59,7 % |

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

| 2020-yil yanvar-dekabr | 2021-yil yanvar-dekabr |
|---|---|
| 42,8 % | 40,3 % |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,6 % (2020- yilda 5,1 %) ni tashkil etdi.*

*Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 21,1 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 11,4 % ni, To'rtko'l tumani 8,1 % ni, Ellikqal'a tumani 7,9 % ni, Beruniy tumani 7,3 % ni, Amudaryo tumani 7,1 % ni, Qo'ng'irot va Xo'jayli tumanlari 6,2 % ni, tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (106,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kegeyli (141,0 %), Amudaryo (121,0 %), Bo'zatov (118,4 %), Ellikqal'a (117,0 %), Beruniy (116,9 %), Qorao'zak (112,2 %), Taxtako'pir (111,1 %), Qonliko'l (107,5 %), hamda Mo'ynoq (107,1 %), tumanlarida qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 21,1 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 11,4 % ni, To‘rtko‘l tumani 8,1 % ni, Ellikqal’a tumani 7,9 % ni, Beruniy tumani 7,3 % ni, Amudaryo tumani 7,1% ni tashkil etdi.*




*2377,6 mlrd. so‘m*
*2019- yil*

*2804,2 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*3000,6 mlrd. so‘m*
*2021- yil*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2019-yil** **102,2 %**

**2020- yil** **113,6 %**

**2021- yil** **106,1 %**

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 25,5 % ni, shuningdek, Ellikqal’a tumani 11,8 % ni, Shumanay tumani 10,9 % ni, Amudaryo tumani 9,2 % ni, Qo‘ng‘irot tumani 6,7 % ni, To‘rtko‘l hamda Xo'jayli tumanlari 6,5 % ni tashkil etdi.*

***1013,4*** *mlrd. so‘m*

*2019- yil*

***1199,2*** *mlrd. so‘m*

*2020- yil*

***1210,4*** *mlrd. so‘m*

*2021- yil*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2019- yil 97,4 %

02 2020- yil 115,2 %

03 2021- yil 105,1 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqa-rilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 18,1 %, shuningdek, Taxiatosh 17,3 % ni, To‘rtko‘l 9,1 % ni, Beruniy 7,8 % ni, Xo‘jayli 6,0 % ni, Qo‘ng‘irot ni 5,9 % ni ham Taxtako‘pir 5,7 % ni tumanlari tashkil etdi.




*1364,2 mlrd. so‘m*
*2019- yil*

*1605,0 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*1790,2 mlrd. so‘m*
*2021- yil*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 — 2019- yil — 106,1 %

02 — 2020- yil — 112,4 %

03 — 2021- yil — 106,8 %

## Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari Kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 54,8 %), Taxiatosh (13,7 %), Qo'ng'irot (4,4 %), Amudaryo (3,2 %), To'rtko'l (3,0 %) va Beruniy (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.*

### Qoraqalpog'iston Respublikasi

**2019- yil** — 12736,1 mlrd. so'm

**2020- yil** — 13981,3 mlrd. so'm

**2021- yil** — 16621,3 mlrd. so'm



**2019- yil** — 105,1 %

**2020- yil** — 102,5 %

**2021- yil** — 107,4 %

| | FHI, % da | mlrd. so'm |
|---|---|---|
| Amudaryo | 112,2 | 534,6 |
| Beruniy | 112,2 | 485,9 |
| Bo'zatov | 112,1 | 139,0 |
| Qonliko'l | 123,0 | 322,6 |
| Qorao'zak | 96,4 | 305,7 |
| Kegeyli | 93,3 | 295,3 |
| Qo'ng'irot | 107,5 | 734,2 |
| Mo'ynoq | 113,2 | 191,2 |
| Nukus t. | 100,5 | 290,6 |
| Taxiatosh | 123,2 | 2270,5 |
| Taxtako'pir | 101,1 | 209,2 |
| To'rtko'l | 108,7 | 504,7 |
| Xo'jayli | 85,1 | 380,4 |
| Chimboy | 105,3 | 258,8 |
| Shumanay | 108,8 | 187,3 |
| Ellikqal'a | 108,0 | 402,7 |
| Nukus sh. | 107,6 | 9108,6 |

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (27898,8 ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 30231,2 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (8584,9 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

2019- yil — 6759,8 ming so‘m

2020- yil — 7616,0 ming so‘m

2021- yil — 8584,9 ming so‘m



01 — 2019- yil — 103,6 %

02 — 2020- yil — 101,1 %

03 — 2021- yil — 106,0 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1549,8 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 4549,0 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 3074,9 ming so‘mni, Shumanay tumanida 3055,9 ming so‘mni va Nukus shahrida 1936,9 ming so‘mni tashkil etdi.

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2019- yil** — 1261,9 ming so‘m

**2020- yil** — 1467,4 ming so‘m

**2021- yil** — 1549,8 ming so‘m



**2019- yil** — 100,7 %

**2020- yil** — 112,0 %

**2021- yil** — 104,7%



## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3211 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1552 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 48,4 %) Nukus shahriga 661 tasi (20,6 %), To‘rtko‘l 316 tasi (9,8 %), Amudaryo 297 tasi (9,2 %), Beruniy 281 tasi (8,8 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2019-yil** — 741 dona

**2020- yil** — 801 dona

**2021- yil** — 789 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2019- yil** — 2365 dona

**2020- yil** — 2918 dona

**2021- yil** — 3211 dona

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

*Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 59 ta loyiha bo‘yicha 1553,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 25,6 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.*

| | 2020- yil | 2021 - yil |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni**, *birlikda* | 35 | 59 |
| **Korxonalar soni,** *birlikda* | 29 | 49 |
| **Ishlab chiqarish hajmi,** *mlrd. so‘m* | 363,6 | 1553,9 |
| **Yaratilgan yangi ish o‘rinlari,** *birlikda* | 538 | 234 |

*Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 234 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 43,5 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o‘sganligi kuzatildi.*